

**THE CONCEPT OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND THE ROLE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN ITS FORMATION****Boltakova Yulduz Rustam kizi**

2nd year master's student, Faculty of Pedagogy, JDPU

**KASBIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'RNI****Bo'ltakova Yulduz Rustam qizi**

JDPU Pedagogika fakulteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kasbiy kompetensiyaning mohiyati, tuzilishi va uni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda fanlararo integratsiya, nazariya va amaliyot uyg'unligi, shuningdek, modulli va loyihaviy texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Mualliflar integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyaning kognitiv, faoliyatli, kommunikativ va refleksiv komponentlarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, integrativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, modulli ta'lim.

**Аннотация .** В данной статье анализируются сущность, структура профессиональной компетенции и значение интегративного подхода в её развитии. Освещается роль междисциплинарной интеграции, единства теории и практики, а также модульных и проектных технологий в повышении качества подготовки кадров на основе компетентностного подхода в современном образовании. Авторы обосновывают, что интегративный подход является эффективным средством формирования когнитивного, деятельностного, коммуникативного и рефлексивного компонентов профессиональной компетенции.

**Ключевые слова:** профессиональная компетенция, интегративный подход, компетентностный подход, междисциплинарная интеграция, модульное обучение.

**Annotation.** This article analyzes the essence, structure of professional competence and the importance of the integrative approach in its development. The role of interdisciplinary integration, the unity of theory and practice, as well as modular and project-based technologies in improving the quality of personnel training based on the competency-based approach in modern education is highlighted. The authors argue that the integrative approach is an effective means of forming the cognitive, activity-based, communicative and reflexive components of professional competence.

**Keywords:** professional competence, integrative approach, competency-based approach, interdisciplinary integration, modular education.

**Kirish (Introduction).** Kasbiy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – mehnat bozori talablariga mos keladigan, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega mutaxassislar tayyorlashdir. Bugungi kunda faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas, balki bitiruvchining real kasbiy faoliyatga tayyorligi – ya'ni uning kasbiy kompetensiyasi muhim mezon sifatida e'tirof etilmoqda. Ammo ko'pgina ta'lim dasturlarida fanlar bir-biridan izolyatsiya qilingan holda o'qitiladi, bu esa bitiruvchilarda yaxlit kasbiy dunyoqarash va amaliy ko'nikmalarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, kasbiy kompetensiyani samarali

shakllantirishda integrativ yondashuvni joriy etish dolzarb ilmiy-metodik muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu muammoning nazariy asoslari va amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar.** Kasbiy kompetensiya tushunchasi va uni shakllantirishda integrativ yondashuvning o'zini bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bir qancha muhim yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Kasbiy kompetensiyani nazariy asoslari asosan XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida shakllangan. J. Raven o'zining “Kompetensiya zamonaviy jamiyatda” nomli fundamental asarida kompetensiyani shaxsning muayyan sohada samarali harakat qilish qobiliyati sifatida ta'riflab, uning ichki motivatsiya va qadriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatgan. A.V. Xutorskoy esa kompetensiyalarni shaxsiy fazilatlar va minimal tajriba bilan bog'lab, ularni asosiy kompetensiyalar sifatida klassifikatsiya qilgan. Rossiya olimi E.F. Zeer kasbiy kompetensiyani mutaxassisning professionallik darajasi sifatida talqin qilib, uning kognitiv, faoliyatli va shaxsiy komponentlarini ajratgan. O'zbekiston pedagogika maktabi vakillaridan M.Q. Jo'rayev kompetensiyaviy yondashuvni milliy ta'lim tizimiga moslashtirgan holda, kasbiy kompetensiyani bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning yaxlit birligi deb hisoblasa, B.X. Xodjaev va Sh.S. Sharipovlar kompetensiyani baholash mezonlari va uni rivojlantirish texnologiyalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu tadqiqotlarning umumiy jihati shundaki, kasbiy kompetensiya oddiy bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki ularni muayyan vaziyatda qo'llay olish va natijaga erishish qobiliyatidir. Integrativ yondashuvga oid adabiyotlar ham pedagogik nazariyada muhim o'rin tutadi. Integratsiya tushunchasi ta'limga dastlab I.D. Zverev va V.N. Maksimova asarlarida fanlararo aloqalar kontekstida kiritilgan bo'lsa, keyinchalik N.K. Chapaev uni ta'lim mazmuni va texnologiyalarining birlashuvi sifatida kengaytirgan. Xorijiy tadqiqotchilardan H. Gardner “ko'p intellektlar nazariyasi”da turli bilim sohalari va qobiliyatlarning integratsiyasi o'quvchining yaxshi rivojlanishiga olib kelishini asoslagan. J. Dewey esa tajribaga asoslangan ta'lim orqali nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surgan. L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi ham bilimlarni ijtimoiy kontekst bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv faqat fanlararo aloqalarni emas, balki ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari va baholash tizimining o'zaro bog'liqligini ham o'z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda integrativ yondashuvning amaliy qo'llanishi masalalari bir qator metodik tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, modulli o'qitish texnologiyasi doirasida P.I. Pidkasiy va M.T. O'razovalarning ishlari diqqatga sazovor. Ularning ta'kidlashicha, modulli dasturlar har bir modulda nazariy bilimlar, amaliy topshiriqlar va baholash vositalarini integratsiyalash orqali kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi. Loyihaviy ta'lim metodining imkoniyatlarini esa N.A. Muslimov va V.V. Guzeyevlar chuqur o'rganib, bu metod real hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida bir nechta fanlardan olingan bilimlarni birlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatgan. Case-study texnologiyasi esa muayyan vaziyat tahlili orqali nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalashning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholanadi. Xalqaro tajribani o'rganish muhim manbalardan biri hisoblanadi. Tuning loyihasi doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyalar taksonomiyasi Yevropa oliy ta'limida keng qo'llaniladi. UNESCOning ISCED tizimi va OECDning DeSeCo loyihasi asosiy kompetensiyalarni belgilashda integrativ yondashuvga e'tibor qaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning asosiy metodologik strategiyasi sifatida kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar birlashtirilgan. Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotni mutaxassisning real kasbiy faoliyatga tayyorligi asosida olib borishni, ya'ni nazariy bilimlardan ko'ra amaliy natijalarga urg'u berishni talab qiladi. Integrativ yondashuv esa tadqiqot doirasida fanlararo chegaralarni yumshatish, ta'lim mazmuni va metodlarini uyg'unlashtirish hamda nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish zarurligini

ko'rsatadi. Bu ikki yondashuvning sintezi orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirishning yagona, yaxlit modelini yaratishga harakat qilingan. Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar nazariy bilish metodlari bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida kasbiy kompetensiya va integrativ yondashuvga otdiy 50 dan ortiq manba – monografiyalar, ilmiy maqolalar, darsliklar, davlat ta'lim standartlari va xalqaro hujjatlar – diqqat bilan o'rganildi. Tahlil davomida turli mualliflarning ta'riflari, tasniflari va modellari bir-biri bilan qiyoslandi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Sintez metodi orqali alohida olingan ma'lumotlar, faktlar va g'oyalar bir butun konsepsiyaga birlashtirilib, kasbiy kompetensiyaning to'rt komponentli tuzilmasi (kognitiv, faoliyatli, kommunikativ va refleksiv) va integrativ yondashuvning asosiy jihatlari (fanlararo, nazariy-amaliy, shaxsiy-ijtimoiy) shakllantirildi. Qiyosiy tahlil metodi O'zbekiston, Yevropa, Rossiya va AQShning kompetensiyaviy ta'lim modellarini hamda har xil mualliflarning integrativ yondashuvga oid qarashlarini solishtirish uchun xizmat qildi. Modellashtirish metodi orqali esa kasbiy kompetensiyani shakllantirishning integrativ modeli nazariy jihatdan qurildi, bu modelda maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita va baholash kabi elementlar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda tasvirlangan. Kontent-tahlil metodi ilmiy matnlar va o'quv dasturlarida "integratsiya", "kompetensiya", "fanlararo" kabi kalit tushunchalarning uchrash chastotasi va semantik maydonini aniqlash uchun qo'llanildi. Tadqiqotning empirik qismi keng ko'lami bo'lmas-da, ayrim yordamchi usullardan foydalanildi. Masalan, 2024 yil davomida bir nechta oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va sillabuslari tahlil qilinib, ularda fanlararo integratsiyaning darajasi aniqlangan. Shuningdek, integrativ darslarni o'tkazish tajribasiga ega bo'lgan 10 nafar pedagog bilan yarim tuzilgan intervyu o'tkazilib, ulardan integrativ yondashuvni amalga oshirishdagi asosiy qiyinchiliklar va muvaffaqiyatli yechimlar haqida ma'lumot olingan. Ushbu empirik ma'lumotlar nazariy tahlil natijalarini boyitish va ularni amaliyot bilan bog'lash uchun xizmat qilgan. Tadqiqotda olingan nazariy va empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda sifatli va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirilgan. Sifatli tahlil orqali adabiyotlarning mazmuniy jihatlari, ilmiy maktablarning farqlari va mualliflar pozitsiyasining asoslari ochib berilgan. Miqdoriy usullardan esa so'rovnomma ma'lumotlarini qayta ishlashda foydalanilgan: anketalar bo'yicha javoblar foiz va chastotalarda hisoblanib, ular jadvallar va diagrammalar ko'rinishida umumlashtirilgan. Shu bilan birga, asosiy diqqat nazariy umumlashtirish va xulosalashga qaratilgan. Tadqiqotning ishonchliligi manbalarning xilma-xilligi (har xil tillardagi, har xil ilmiy maktablarga mansub va har xil metodologik pozitsiyadagi manbalarni qamrab olish), tahlilning tizimliliigi va natijalarning mantiqiy asoslanganligi bilan ta'minlangan. Biroq tadqiqotning asosiy cheklovi uning nazariy xususiyatga egaligidir. Eksperimental usul (masalan, integrativ metodika asosida o'qitilgan eksperimental guruh va an'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhini solishtirish) qo'llanilmaganligi sababli, tadqiqotning xulosalari mexanizmlarni tushuntirish darajasida qoladi, ularning samaradorligini miqdoriy jihatdan isbotlash mumkin emas. Shu sababli, kelgusida ushbu nazariy modelni eksperimental tekshiruvdan o'tkazish va integrativ yondashuvning kasbiy kompetensiyalarga ta'sirini aniq o'lchash tavsiya etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili va nazariy modellashtirish asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Birinchiidan, kasbiy kompetensiya tushunchasining mohiyati aniqlandi. Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatlar va tajribaning yaxlit birligi bo'lib, u real kasbiy vaziyatda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Tahlil natijasida kasbiy kompetensiyaning to'rt tarkibiy komponenti ajratildi: kognitiv (nazariy bilimlar), faoliyatli (amaliy ko'nikmalar), kommunikativ (mulokot va hamkorlik qilish qobiliyati) hamda refleksiv (o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati).

Ikkinchidan, integrativ yondashuvning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi o'rnini aniqlandi. Integrativ yondashuv fanlararo aloqalarni mustahkamlash, nazariya va amaliyotni birlashtirish, shaxsning turli sohalardagi bilimlarini bir butunga birlashtirish orqali kompetensiyalarni yaxlit shakllantiradi. Unga asoslangan ta'limda o'quv jarayoni real kasbiy faoliyat modeliga yaqinlashadi.

Uchinchidan, integrativ yondashuvni amalga oshirishning samarali texnologiyalari sifatida modulli o'qitish, loyihaviy ta'lim, case-study va simulyatsion mashg'ulotlar aniqlangan. Ushbu texnologiyalar bir vaqtning o'zida bir nechta kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi va o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi.

To'rtinchidan, mavjud amaliyotda muammolar mavjudligi aniqlandi: o'quv rejalarining yuqori darajada izolyatsiyalanganligi, o'qituvchilarning integrativ dasturlarni ishlab chiqishga tayyor emasligi va baholash tizimining kompetensiyaviy natijalarni to'liq qamrab olmasligi. Shunday qilib, integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, uni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

**Xulosa.** Kasbiy kompetensiya zamonaviy ta'lim tizimining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u mutaxassisning bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatlar va tajribaning yaxlit birligi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiyani samarali shakllantirish uchun an'anaviy fan markazli ta'limdan integrativ yondashuvga asoslangan ta'limga o'tish zarur.

Integrativ yondashuv fanlararo aloqalarni mustahkamlash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda turli kompetensiyalarni bir vaqtning o'zida rivojlantirish orqali mutaxassis tayyorlash sifatini oshiradi. Ushbu yondashuvni amalga oshirishda modulli o'qitish, loyihaviy ta'lim, case-study va simulyatsion mashg'ulotlar eng samarali texnologiyalar sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga, amaliyotda integrativ yondashuvni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi muammolar mavjud: o'quv rejalarining fanlararo bog'liqlik darajasi pastligi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi va baholash tizimining kompetensiyaviy natijalarni to'liq qamrab olmaganligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi bo'lib, uni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish bitiruvchilarning real kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusida ushbu nazariy modelni eksperimental tekshirish va integrativ ta'limning aniq miqdoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xutorskoy A.V. Kompetensiyaviy yondashuv va ta'lim mazmuni // Pedagogika. – 2017. – №5. – B. 12–18.

2. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 256 p.

3. Jo'rayev M.Q. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 184 b.

4. Zverev I.D., Maksimova V.N. Fanlararo aloqalar zamonaviy maktabda. – Moskva: Pedagogika, 2018. – 160 b.

5. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons. – New York: Basic Books, 2016. – 320 p.
6. Muslimov N.A. Kasbiy ta’limda modulli o’qitish texnologiyalari. – Toshkent: TATU, 2021. – 140 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim Davlat ta’lim standarti (2022–2024). – Toshkent: Adliya vazirligi, 2022.